


XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi¹⁾ 2024 yil iyun oyida 4 521,4 ming so‘mni tashkil etib, 2023 yilning mos davriga nisbatan 6,0 foizga o‘tdi.

Yanvar – iyun oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘sishi iqtisodiy faoliyat turlarining savdo sohasida (122,7 foizga), bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (116,7 foizga), sanoat sohasida (112,2 foizga) kuzatildi.

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdori iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 11 274,5 ming so‘m (viloyat bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2 marta ko‘p), axborot va aloqa sohasida 8 111,4 ming so‘m (194,8 marta ko‘p), tashish va saqlashda 7 294,8 ming so‘m (175,2 foizga), savdo sohasida 5 373,5 ming so‘m (129,1 foizga) kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik
nominal hisoblangan ish haqi
(2024 yil yanvar-iyun)



¹⁾ Bu yerda va keyingi o'rinlarda dastlabki ma'lumotlar, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, qayta hisoblangan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha
oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(qishloq xo'jalikligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

(ming so'm)

	Yanvar-iyun		Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz	
	2023 yil	2024 yil	2023 yil	2024 yil
Jami viloyat bo'yicha	3 720,5	4 163,3	x	x
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	4 378,1	4 910,8	117,7	118,0
Qurilish	4 333,2	4 774,2	116,5	114,8
Savdo	4 380,3	5 373,5	117,7	129,1
Tashish va saqlash	6 527,4	7 294,8	175,4	175,2
Axborot va aloqa	7 741,9	8 111,4	208,1	194,8
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	9 663,2	11 274,5	259,7	270,8
Ta'lim	2 839,8	3 192,0	76,3	76,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy hizmatlar ko'rsatish	2 995,5	3 333,6	80,5	80,1
Boshqa faoliyat turlari	3 975,1	4 575,6	106,8	109,9



Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 192,0 ming so'mni tashkil etib, 2023 yilning mos davriga nisbatan 112,4 foizga o'sdi.

Ta'lim sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro shahrida 4 678,9 ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (146,6 foiz), Qorovulbozor tumanida 3 588,7 ming so'mni (112,4 foiz) tashkil etgan bo'lsa, Kogon shahrida 2 983,0 ming so'mni (93,5 foiz), Qorako'l tumanida 2 923,4 ming so'mni (91,6 foiz) Romitan tumanida 2 769,7 ming so'mni (86,8 foiz), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4 910,8** ming so'mni tashkil etib, 2023 yilning mos davriga nisbatan **112,2** foizga ko'paydi.

Sanoat sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Buxoro tumanida **22 536,6** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **5** marta ko'p), Kogon tumanida **9 003,6** ming so'mni (**2** marta ko'p) va Qorovulbozor tumanida 7 966,4 ming so'mni (**191,3** foiz) tashkil etgan bo'lsa, Vobkent tumanida **2 062,9** ming so'mni (**49,5** foiz), Romitan tumanida **2 424,4** ming so'mni (**58,2** foiz) va Shofirkon tumanida **2 530,8** ming so'mni (**60,8** foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 774,2 ming so'mni, 2023 yilning mos davriga nisbatan 110,2 foizni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Olot tumanida 6 232,0 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 149,7 marta ko'p) bo'lsa, Buxoro shahrida 4 899,2 ming so'mni (117,7 foiz) tashkil etgan bo'lsa, Buxoro tumanida 3 200,7 ming so'mni (76,9 foiz), Romitan tumanida 3 497,2 ming so'mni (84,0 foiz) boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3 333,6** ming so'mni tashkil etib, 2023 yilning mos davriga nisbatan **111,3** foizni tashkil etdi.

Mazkur sohalardagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Peshko'tumanida **3 938,0** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **118,1** foiz), Qorovulbozor tumani **3 695,1** ming so'mni (**88,8** foiz), Kogon shahrida **3 601,1** ming so'mni (**86,4** foiz) tashkil etgan bo'lsa, Buxoro tumanida **2 696,2** ming so'mni (**64,8** foiz), Qorako'l tumanida **2 654,1** ming so'mni (**63,7** foiz), Shofirkon tumanida **2 549,7** ming so'mni (**61,2** foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **11 274,5** ming so'mni tashkil etib, 2023 yilning mos davriga nisbatan **116,7** foizga o'sdi.



O'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, eng yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida **6 220,3** ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (**149,4** foiz), Kogon shahrida **6 212,8** ming so'mni (**149,2** foiz), Buxoro shahrida **4 995,9** ming so'mni (**120,2** foiz) etgan bo'lsa, Shofirkon tumanida **2 727,9** ming so'mni (**65,5** foiz), Vobkent tumanida **2 828,1** ming so'mni (**67,9** foiz), Peshko'tumanida **3 077,7** ming so'mni (**73,9** foiz) tashkil etib boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

O'rtacha oylik ish haqining eng past ko'rsatkichlari Vobkent (**2 828,1** ming so'm) va Shofirkon (**2 727,7** ming so'm) tumanlarida kuzatildi. Bu tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichlari viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan mos ravishda kam bo'lgan.

Buxoro viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo'jalikligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

(ming so'm)

	<i>Yanvar- iyun</i>		<i>Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz</i>	
	<i>2023 yil</i>	<i>2024 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2024 yil</i>
Buxoro viloyati	3 720,5	4 163,3	x	x
Buxoro sh.	4 377,6	4 995,9	117,7	120,0
Kogon sh.	5 577,0	6 212,8	149,9	149,2
<i>tumanlar</i>				
Buxoro	3 021,6	3 537,7	81,2	85,0
Vobkent	2 494,0	2 828,1	67,0	68,0
Jondor	2 739,0	3 077,7	73,6	73,9
Kogon	3 336,8	3 533,4	89,7	84,9
Olot	3 083,8	3 417,1	82,9	82,1
Peshko'	2 774,9	3 161,1	74,6	75,9
Romitan	3 163,2	3 474,0	85,0	83,4
Shofirkon	2 622,0	2 727,9	70,5	65,5
Qorako'l	2 637,4	3 025,4	70,9	72,7
Qorovulbozor	5 712,4	6 220,3	153,5	149,4
G'ijduvon	2 752,1	3 533,4	74,0	84,9

**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

Ish vaqti- korxonada yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

Ish haqi- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.